

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Statistika agentligining
2024-yil 8 may dagi
88 - son buyrug'iga
Ilova

Keng qamrovli iqtisodiy toifalar bo'yicha tovarlarning statistik nomenklaturasi

Keng qamrovli iqtisodiy toifalar bo'yicha tovarlarning statistik nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda – Nomenklatura) tovarlar xalqaro savdosining keng iqtisodiy sinflar bo'yicha yig'ma ma'lumotlarini shakllantirish uchun mo'ljallangan.

Nomenklaturada eksport va import bo'yicha jamlangan ma'lumotlar, Milliy hisoblar tizimidagi (MHT) yakuniy foydalaniladigan tovarlar toifalariga o'tkaziladi, ya'ni tegishli uch toifadagi tovarlar guruhi – ishlab chiqarish vositalari (asosiy fondlar), oraliq tovarlar va iste'mol tovarlariga.

Nomenklatura xalqaro va davlat tasniflagichlari asosida ishlab chiqilgan:

- BMT statistika bo'limi tomonidan tayyorlangan Keng qamrovli iqtisodiy toifalar bo'yicha tasniflagich (keyingi o'rinlarda – KQIT 4);

- O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi 2017-yil versiyasi (keyingi o'rinlarda – TIFTN).

Nomenklatura faqat tashqi savdo statistikasida ya'ni, eksport-import uchun yetkazilgan xomashyo va qayta ishlangan tovarlarni aniqlash uchun ishlatiladi.

Nomenklatura O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keyingi o'rinlarda – GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

I bob. Umumiy tushunchalar

1. Nomenklatura GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

2. Ushbu Nomenklaturada quyidagi atamalar bilan tegishli ta'riflar qo'llaniladi:

mahsulot – tovarlar va xizmatlarni o'z ichiga olgan iqtisodiy faoliyat natijasi;

tovar –savdo predmeti bo‘lgan mahsulotlar;

xomashyo tovarlari – qishloq va o‘rmon xo‘jaligi, baliqchilik, ovchilik va tog‘-kon sanoatining mahsuloti bo‘lib, qiymatiga qayta ishlashning kichik bir qismi qo‘shilgan tovarlar. Chiqindi va metall parchalari ham xomashyo tovarlari qatoriga kiritilgan.

II bob. Asosiy qoidalar

3. Oziq-ovqat mahsulotlari, ishlab chiqarish uchun birlamchi mahsulotlar, kapital qo‘yilmalar, uzoq va qisqa muddatli iste‘mol tovarlarini tasniflash obyekti bo‘lib hisoblanadi.

4. Nomenklatura 19 ta asosiy toifalardan iborat: 111, 112, 121, 122, 21, 22, 31, 32, 322, 41, 42, 51, 521, 522, 53, 61, 62, 63, 7 hamda tegishli uch toifadagi tovarlar guruhi – ishlab chiqarish uchun, oraliq iste‘mol tovarlari va iste‘mol tovarlari.

1) Oziq-ovqat mahsulotlar va ichimliklar

11 Xomashyo

111 Asosan ishlab chiqarish uchun

112 Asosan shaxsiy iste‘mol uchun

12 Qayta ishlangan

121 Asosan ishlab chiqarish uchun

122 Asosan shaxsiy iste‘mol uchun

2) Boshqa toifalarga kiritilmagan ishlab chiqarish uchun birlamchi mahsulotlar

21 Xomashyo

22 Qayta ishlangan

3) Yoqilg‘i-moylash mahsulotlari

31 Xomashyo

32 Qayta ishlangan

321 Avtomobil benzini

322 Boshqalar

4) Asosiy vositalar (transport vositalaridan tashqari) va ular uchun butlovchi qismlar va moslamalar

41 Asosiy vositalar (transport vositalaridan tashqari)

42 Butlovchi qismlar va moslamalar

5) Transport vositalari va ularga ehtiyot qismlar

51 Yengil avtomobillar

52 Boshqalar

521 Sanoat

522 Nosanoat

53 Ehtiyot qismlar va moslamalar

6) Boshqa toifaga kirmaydigan iste'mol tovarlari

61 Uzoq muddat foydalaniladigan

62 O'rta muddat foydalaniladigan

63 Qisqa muddat foydalaniladigan

7) Boshqa toifaga kiritilmagan tovarlar

5. Nomenklaturaning 19 asosiy toifalari MHTdagi tovarlarning asosiy guruhlari (ishlab chiqarish vositalari (asosiy fondlar), oraliq tovarlar va iste'mol tovarlari)ga muvofiqligi jadvalda keltirilgan.

<i>Nomenklatura</i>	<i>MHTdagi tovarlarning asosiy guruhlari</i>
<i>1) Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar</i>	
<i>11 Xom ashyo</i>	
<i>111 Asosan ishlab chiqarish uchun</i>	<i>Oraliq iste'mol tovarlari</i>
<i>112 Asosan shaxsiy iste'mol uchun</i>	<i>Iste'mol tovarlari</i>
<i>12 Qayta ishlangan</i>	
<i>121 Asosan ishlab chiqarish uchun</i>	<i>Oraliq iste'mol tovarlari</i>
<i>122 Asosan shaxsiy iste'mol uchun</i>	<i>Iste'mol tovarlari</i>
<i>2) Boshqa toifalarga kiritilmagan ishlab chiqarish uchun birlamchi mahsulotlar</i>	
<i>21 Xom ashyo</i>	<i>Oraliq iste'mol tovarlari</i>
<i>22 Qayta ishlangan</i>	<i>Oraliq iste'mol tovarlari</i>
<i>3) Yoqilg'i-moylash mahsulotlari</i>	
<i>31 Xom ashyo</i>	<i>Oraliq iste'mol tovarlari</i>
<i>32 Qayta ishlangan</i>	
<i>321 Avtomobil benzini</i>	

322 Boshqalar	Oraliq iste'mol tovarlari
4) Asosiy vositalar (transport vositalaridan tashqari) va ular uchun butlovchi qismlar va moslamalar	
41 Asosiy vositalar (transport vositalaridan tashqari)	Ishlab chiqarish vositalari
42 Butlovchi qismlar va moslamalar	Oraliq iste'mol tovarlari
5) Transport vositalari va ularga ehtiyot qismlar	
51 Yengil avtomobillar	
52 Boshqalar	
521 Sanoat	Ishlab chiqarish vositalari
522 Nosanoat	Iste'mol tovarlari
53 Ehtiyot qismlar va moslamalar	Oraliq iste'mol tovarlari
6) Boshqa toifaga kirmaydigan iste'mol tovarlar	
61 Uzoq muddatli foydalaniladigan	Iste'mol tovarlari
62 O'rta muddatli foydalaniladigan	Iste'mol tovarlari
63 Qisqa muddatli foydalaniladigan	Iste'mol tovarlari
7) Boshqa toifaga kiritilmagan tovarlar	

6. MHTdagi uchta asosiy toifadagi tovarlarning tarkibidagi Nomenklaturani asosiy toifalari quyida keltirilgan:

a. Ishlab chiqarish vositalari

Birlashadigan kategoriyalar:

41 Asosiy vositalar (transport vositalaridan tashqari)

521 Transport vositalari, sanoat

b. Oraliq iste'mol tovarlari

Birlashadigan kategoriyalar:

111 Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar, xomashyo, asosan ishlab chiqarish uchun

121 Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar, qayta ishlangan, asosan ishlab chiqarish uchun

21 Boshqa toifalarga kiritilmagan ishlab chiqarish uchun birlamchi mahsulotlar, xomashyo

22 Boshqa toifalarga kiritilmagan ishlab chiqarish uchun birlamchi mahsulotlar, qayta ishlangan

31 Yoqilg'i-moylash mahsulotlari, xomashyo

322 Yoqilg'i-moylash mahsulotlari, qayta ishlangan (avtomobil benzinidan tashqari)

42 Asosiy vositalar (transport vositalaridan tashqari) uchun butlovchi qismlar va moslamalar

53 Transport vositalari uchun ehtiyot qismlar va moslamalar

v. Iste'mol tovarlar

Birlashadigan kategoriyalar:

112 Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar, xomashyo, asosan shaxsiy iste'mol uchun

122 Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar, qayta ishlangan, asosan shaxsiy iste'mol uchun

522 Transport vositalari, nosanoat

61 Boshqa toifalarga kiritilmagan iste'mol tovarlari, uzoq muddat foydalaniladigan

62 Boshqa toifalarga kiritilmagan iste'mol tovarlari, o'rta muddat foydalaniladigan

63 Boshqa toifalarga kiritilmagan iste'mol tovarlari, qisqa muddat foydalaniladigan.

7. Yuqoridagi guruhlar Nomenklaturaning 19 ta asosiy toifasidan faqat 16 tasini o'z ichiga oladi, 321 "Avtomobil benzini", 51 "Yengil avtomobillar" va 7 "Boshqa toifaga kiritilmagan tovarlar" toifalari MHT guruhlariga kiritilmagan. 321 va 51-toifalar ishlab chiqarish uchun ham, shaxsiy iste'mol uchun ham keng qo'llaniladi. Savdoning muhim predmeti sifatida avtomobil benzini, alohida toifaga ajratilgan. Mazkur tovar, odatda ishlab chiqarishda ham, shaxsiy iste'molda ham qo'llaniladi, ya'ni u ham oraliq, ham yakuniy iste'mol tovar bo'lishi mumkin. U nomenklaturaning alohida toifasiga ajratilgan, ammo MHTning ma'lum bir guruhiga kiritilmagan.

8. Yengil avtomobillar xalqaro savdoda muhim o'rin egallagani bois, 51-toifa alohida toifa sifatida ajratilgan. Ushbu tovarlar odatda ishlab chiqarishda asosiy vositalar sifatida yoki uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlari sifatida ishlatiladigan tovarlar; bu esa ular ishlab chiqarish vositasi ham, iste'mol tovar ham

bo'lishi mumkinligini anglatadi. Ushbu kategoriya nomenklaturani tasniflagichida alohida ajratilgan, ammo MHTning ma'lum bir sinf guruhi bilan bog'liq emas.

9. 7-toifaga boshqa tovarlardan tashqari, harbiy texnika, pochta jo'natmalari va turlarga ko'ra tasniflanmagan tovarlar hamda maxsus operatsiyalar kiradi, shuningdek, MHT tovarlar guruhidagi har xil tovarlarni o'z ichiga olishi mumkin.

III bob. Yakuniy qoidalar

10. Nomenklatura tarkibiga o'zgartirilish kiritilishiga TIFTN va KQIT-4 dagi o'zgarishlar asos hisoblanadi. Ushbu o'zgartirishlarning maqsadi, Nomenklatura tarkibidagi ma'lumotlarning ishonchliligi va to'liqligini ta'minlashdir.

Ushbu nomenklatura statistika organlarida statistik ma'lumotlarni shakllantirish jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan.

11. Mazkur nomenklaturani ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

IV bob. Foydalanilgan ma'lumotlar ro'yxati

1. Keng qamrovli iqtisodiy toifalar bo'yicha tasniflagich / BMT, Nyu-York, 2002- yil (*Klassifikatsiya po shirokim ekonomicheskim kategoriyam (SHEK 4)/OON, Nyu-York, 2002 god*).

2. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi / (2017- yilgi versiyasi).